



Pedagogikasida farzand tarbiyalashning metod, usul va vositalari.

**Aliyeva Dilafruz
Quchqarovna**

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 5-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xalq pedagogikasi xalq ommasining turmush faoliyati jarayonida to'plangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tarbiya borasidagi tajriba va bilimlari yig'indisidir.

Madaniy-ma'rifiy qadriyatlarga turli yodgorliklar, maqbaralar, tarixiy ansambllar, masjidlar, madrasalar kiradi. Ilmiy-ma'naviy qadriyatlarga esa insoniyat rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy manbalar, mantiq, falsafa, riyoziyot, handasa(geometriya), jabrumuqobil (algebra), jug'rofiya, ilmi nujum(astronomiya), adabiyot, ulum al-islom (islom ilmi) kiradi. Yosh avlodga dars davomida bular haqida tushincha berish orqali tarbiya nazariyasini singdirish.

Kalit so'zlar: Xalq pedagogikasi, tarbiya, ziyraklik, e'tiqod, matbuot, urf-odat, ibrat-o'rnak, metod,qadriyat.

Xalq pedagogikasi barkamol avlod tarbiyasi, uning kamolotiga oid barcha masalalarni o'zida mujassam etgan. Shunga ko'ra barkamol shaxs vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ahillik, ilm va kasb-hunarga mehr-muhabbat, adolatlilik, ziyraklik, tashabbuskorlik, e'tiqod va sadoqatlilik, oqibatlilik, odoblilik kabi fazilatlarga ega bo'lishi, shu bilan birga chuqur ilm egallashi, vaqtning qadriga yetishi, xalq udumlari va milliy urf-odatlarini yaxshi bilishi va qadrlashi, diniy ta'limotlarni to'g'ri tushunishi, muomala odobi va kiyinish madaniyatiga rioya qilishi lozimligi uqtirilgan. Bu fazilatlarning aksi bo'lgan nodonlik, badxulqlilik, manmanlik, qo'rqqoqlik, yolg'onchilik, odobsizlik, insofsizlik, sabrsizlik, baxillik, kibru-havo, hasadgo'ylik, farosatsizlik kabi illatlardan xoli bo'lishi talab etilgan. Ana shu ijobiy fazilatlarni yoshlar tarbiyasiga singdirish va illatlardan yiroq tutish yoki xoli qilish bo'yicha xalq pedagogikasida qator tarbiya metodlari, usul va vositalari mavjud. O'git-nasihat qilish, ibrat-o'rnak ko'rsatish, rag'batlantirish va qoralash kabi metodlarni xalqimiz asrlar davomida qo'llab kelgan bo'lib, uning quyidagi ijobiy shakllari:

- ✓ tushuntirish;
- ✓ o'rgatish, mashq qildirish;
- ✓ odatlantirish;
- ✓ kun tartibini rejalashtirish;
- ✓ yaxshi xislat va ishlarga undash:

- ✓ iltimos qilish;
- ✓ istak bildirish;
- ✓ maqtash;
- ✓ rahmat aytish, minnatdorchilik bildirish;
- ✓ ma'qullash;
- ✓ olqish aytish;
- ✓ duo qilish;

Shuningdek, xalq pedagogikasida o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda quyidagi holatlar qoralanadi:

- ✓ ta'qiqlash, ma'n etish;
- ✓ buyurish;
- ✓ ta'na, o'pka-gina qilish;
- ✓ talab qilish;
- ✓ uyaltirish;
- ✓ yolvorish va ko'ndirish;
- ✓ tanbeh berish;
- ✓ majbur qilish;

Tarbiya metodlari ichida eng ko'p qo'llanadigan turi bu namuna, ibrat ko'rsatish, ya'ni o'rnak bo'lishdir. Buni ikki xil yo'nalishda amalga oshirish mumkin. Birinchisida, yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan insonlarning ibratli jihatlarini ko'rsatish orqali undan o'rnak olishga undalsa, ikkinchisida salbiy axloqli kishilarning nojo'ya ishlarini ko'rsatish bilan undan nafratlanishga o'rgatiladi. Buyuk allomalar va mutafakkirlarning hayot yo'li bizga doim ibrat maktabi bo'lib qoladi. Chunonchi, oiladagi kattalar ham o'z farzandlari uchun doimo o'rnak ko'zgusi bo'lmoqliklari kerak. Chunki bola barcha yaxshi fazilatlarni ham, yomon illatlarni ham eng avvalo oiladan o'rganadi, zero xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytishmagan.

Xalq pedagogikasidagi rag'batlantirish metodiga maqtash, ma'qullash, alqash, mukofotlash kabi shakllarni kiritishimiz mumkin. Bolalarning yaxshi fazilat ila amalga oshirgan ibratli ishlari kattalar tomonidan ma'qullansa, maqtalsa, olqishlansa, rahmat aytilsa, alqansa va imkon doirasida taqdirlansa, ular yanada yaxshi xislatlarga ega bo'lishga, yaxshi ishlarni bajarishga harakat qiladilar. Bunga o'zbek xalq og'zaki ijodidan ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Asar qahramonlari xalqni zolimning zulmidan qutqarib uning olqishi va rahmatiga sazovor bo'lganlagi, munosib taqdirlanganligi haqidagi ertak, rivoyat, afsona, asotir va dostonlar behisob. Maqtash, alqash paytida:

- ✓ "Tarbiya bergan ota-onangga rahmat";
- ✓ "Ta'lim bergan ustozingga rahmat";
- ✓ "Ustozdan ibrat olgan aqllaringga rahmat";
- ✓ "Barakalla, o'g'lim, qizim";
- ✓ "Aqlu-hushing, idrokingga ofarin";
- ✓ "Oqilaligingga tahsinlar bo'lsin" kabi jumlar ishlatiladi.

Asosan yoshi ulug'lar, ota-onalar farzandlarining ijobiy ishlaridan minnatdor bo'lishganda o'zlarining chuqur ichki istak va niyatlarini alqash orqali amalga oshirganlar. Keyinchalik bu istak-niyatlarini Ollohdan so'raydigan bo'lganlar va shu

tariqa alqash-duolar yuzaga kelgan, alqashdan oldin "ilohim" so'zi ishlatila boshlangan. Quyida alqash-duolarga misollar keltiramiz:

- ✓ (ilohim) umringdan baraka top;
- ✓ qo'ling dard ko'rmasin (dard ko'rma);
- ✓ tani-joning sog' bo'lsin;
- ✓ tuproq olsang oltin bo'lsin:

Tarbiya vositalaridan biri bo'lgan bolalar o'yinlarining o'z qoidalari bo'lgan. Shu qoidaga rioya qilmagan bolalarni "o'yin buzuvchi" deb o'yindan chetlatishgan. Ya'ni o'yin jarayonida bolaning yaxshi va yomon jihatlari namoyon bo'lgan. E'tibor bersangiz, tarbiya vositalarining barchasi ko'pchilik ishtirokida amalga oshiriladi va shubhasiz, bu juda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bunday bayram, sayil, gap-gashtak. yig'inlarda bolalarning yaxshi va yomon xatti-harakati ko'pchilikning ko'z o'ngida namoyon bo'ladi va shu ko'pchilik tomonidan baholanadi. Ota-onalar o'z farzandlari tarbiyasiga oid xulosalar chiqaradilar. Farzandlarning odob-axloqi haqidagi yaxshi fikrlar ota-onani quvontirsa, aksincha, farzandining xulqi haqidagi ta'na va isnodlar ularni tashvishga soladi. Bunda keksalar, ota-onalar: "Bolam, bu yurish-turishingni ko'rganlar, gap- so'zingni eshitganlar nima deydi?", "Mahalladagilar oldida uyat emasmi?", "Bizni uyatga(isnodga) qo'ydingku (sharmanda qildingku)", deb aziyat chekishadi.

O'smir yoshdagi bolalarning choyxona gurungi. gap- gashtaklarining ham o'ziga yarasha qoidasi bor. Bu choyxonaga navbat bilan taklif qilish, o'rtoqlari bilan samimiy muomalada bo'lish, so'zlovchi gapini bo'lmaslik, navbat bilan gapirish, navbat bilan choy quyish, choyni o'ng qo'l bilan uzatish, noz-ne'matlarni teng baham ko'rish, dasturxonga undash va hokazolardir. O'smirlarning yaxshi fazilatlarini ham, yomon xulqi ham bu yig'inlarda namoyon bo'ladi. Kattalarning o'g'it-nasihatlarini olib, ulfatchilikda qatnashgan o'smirlar odob qoidalarini yaxshi o'zlashtirib oladilar.

Xalq pedagogikasida tarbiya vositalaridan yana biri mehmondorchilikdir. Marosim. yig'in, to'y-tomosha, gap-gashtak, choyxona gurgunining barchasi mehmondorchilikni o'z ichiga oladi. Mehmondo'stlik xalqimiz hayotiga singib ketgan eng yuksak kishilik fazilatlaridan iborat bo'lib, yoshlar tarbiyasida eng muhim tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Xonadon mezbonlari mehmonning ko'nglini olish, xursand qilish uchun eng yaxshi idish-tovoqlarni ishlatadilar, taniqli taomlar pishiradilar. Mehmondo'stlikning o'ziga xos qoidalari bolalarga pand-nasihat. maslahatlar berish orqali, shaxsiy ibrat-o'rnak ko'rsatib yoshligidan o'rgatib kelinadi. Shu tariqa xalqimiz yuqoridagi kabi tarbiya metodlari, shakllari va vositalari orqali yosh avlodni axloqiy tarbiyalab, insoniy fazilatlariga o'rgatgan.

Nazariy bilimlarni o'zlashtirishda kundalik hayotdagi tanish hayotiy voqealarni misol tariqasida qo'llash o'quvchilarning faolligini oshiradi, bilimlarini mustahkamlaydi va dunyoqarashini kengaytiradi. Xulosa qilib aytganda, milliy ta'lim-tarbiya xalq pedagogikasi an'analari asosida o'qitish va tarbiyalashdan boshlanadi. Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan ta'lim-tarbiya tizimining barcha tarkibiy qismlarida foydalanish mumkin.

Ko'pgina fan o'quv dasturlari va darsliklarida xalq donishmandligidan olingan va boy tarbiyaviy ahamiyatdagi mavzular, hamda o'quv materiallari berilgan. Buni maktabning boshlang'ich sinfidan tortib to oliy ta'limning bakalavriat va magistratura

yo'nalishlaridagi fanlarni o'rganishda ko'rish mumkin. Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlardagi "Ona tili", "O'zbek adabiy tili", "Adabiyot" kabi darsliklarida atroflicha yoritilgan xalq og'zaki ijodiyoti, o'zbek adabiyoti klassiklari asarlari xalq pedagogikasi manbalari sifatida chuqur tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Xalq og'zaki ijodi namunalari va o'zbek mutafakkirlari asarlari bilan yoshlarni tanishtirishda o'qituvchi yorqin badiiy obrazlarga asosiy e'tiborini qaratishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahimova D., Dadasheva S. "Xalq og'zaki ijodi-tarbiya vositasi. T., 1995.
2. Safo Ochil "Mustaqillik va tarbiya masalalari". T.: O'zbekiston, 1996.
3. Xasanboeva O. "Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi. T., 1996.
4. Musurmonov A. "Ta'lim-tarbiyada xalq og'zaki ijodidan foydalanish". T.: O'qituvchi, 1993.